

**Transport nazorati inspeksiyasi boshlig'i tomonidan
inspeksiya xodimlari va jamoatchilikka**
MUROJAATI

**Assalomu alaykum, hurmatli hamkasblar va jamoatchilik
vakillari !**

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, jamiyatning barcha sohalarida korruption holatlarni keltirib chiqaruvchi omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "**Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida**"gi **Qonuni** va qator Farmon, Qarorlar qabul qilinib, korrupsiyani oldini olish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **Milliy kengash yig'ilishida Davlatimiz rahbari o'z nutqida korrupsiya - islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov ekanini ta'kidladi**.

Fikri toza, korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodni tarbiyalash maqsadida ta'lim maskanlarida halollik g'oyalarini singdirish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash muhimligi ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbarining jamoatchilikka murojaatida **korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliyl vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishi ekanligi ta'kidlab o'tildi**.

Umuman, ilk marotaba bunday tarzda yig'ilish o'tkazilishi korrupsiyaga qarshi kuchli siyosiy irodani namoyon etdi. Davlatimiz rahbari **55 ta** aniq maqsadga yo'naltirilgan tashabbuslarni ilgari surdi.

Ular doirasida **5 ta Qonun, 12 ta farmon va qarorlar** ishlab chiqiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda Parlament, Milliy va hududiy kengashlar, fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshiriladi.

Transport nazorati inspeksiyamiz tizimida ham korrupsiyaviy holatlarni oldini olish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, Inspeksiya markaziy apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul xodim faoliyat ko'rsatmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **Chora-tadbirlar dasturi** va **korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi** tasdiqlanib, ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Shuningdek, Inspeksiyaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **Siyosati**, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash **Uslubiyoti**, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha **Nizom**, aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish **Reglamenti**, etika va korrupsiyaga qarshi kurashish

sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha, kontragentlarni tekshirishga oid va ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha **Yo'riqnomalar**, Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish **Uslubiyoti**, korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha **Nizom** hamda korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha **Reglamenti** bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi **829-son qaroriga** muvofiq **Inspeksiyada korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish tartibi joriy etildi**.

Inspeksiyaning 2024-yil 9-fevraldagagi "Ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi **62-K-son buyrug'iga** muvofiq **Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan hamkorlikda e'lon qilingan mustaqil, ochiq tanlov asosida** ishga qabul qilish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Inspeksiyada xodim va ish beruvchi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha shartlar kiritildi.

Bundan tashqari, sohani raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta'minlash bo'yicha tizimda barcha yo'nalishdagi funfsiyalarni bosqichma-bosqich **raqamlashtirish davom etmoqda**. Bu kabi ishlarimiz bundan keyin ham davom ettiriladi.

Inspeksiyamizni korrupsiyasiz sohaga aylantirish uchun barcha kuch va imkoniyatlar mavjud va biz ulardan foydalanamiz.

Hurmatli hamkasblar !

Transport nazorati inspeksiyasi tizimi xodimi degan yuksak sharaflı maqom egasi sifatida shubha uyg'otuvchi harakatlar, so'zlardan tiyilishimiz, hamma joyda yurish-turishimiz, harakatlarimiz bilan boshqa davlat xizmatchilariga va oila a'zolarimizga namuna bo'lismiz zarur.

Shunday ekan Inspeksiya tizimidagi barcha xodimlar o'z xizmat vazifalarini bajarishda:

* Inspeksiyaning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga amal qilishi hamda uning tamoyillari va talablariga qat'iy rioya etishlari kerak;

* korrupsiya bilan bog'liq har qanday hatti-harakatlarda ishtirok etishi taqiqlanadi;

* xodimlar ularni korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarlikni sodir etishga undovchi shaxslarning har qanday murojaatlari to'g'risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid qonunbuzilish holatlari haqida o'z rahbarlariga va Inspeksianing korupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul xodimiga xabar berishlari shart;

* bevosita rahbari yoki mas'ul shaxsni manfaatlar to'qnashuvi ehtimoli haqida xabardor qilishi lozim.

Har birimiz o'z ishimizga halol va vijdonan yondashsak, albatta oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishamiz.

Inspeksiya tizimida faoliyat olib borayotgan har bir xodim har qanday korrupsiyaviy holat uchun jazo muqarrarligini va kechirilmasligini bilishi shart!

Hurmatli fuqarolar va jamoatchilik vakillari!

Transport nazorati inspeksiyasini "korrupsiyasiz soha"ga aylantirishda jamoatchilik vakillari hamda fuqarolarimiz roli alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Inspeksiya tizimida korupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Sizlarni hamkorlikka chaqirib qolamiz.

Tizimdagi korrupsiyaviy holatlar yuzasidan fikr-mulohazalar va takliflar uchun Inspeksianing elektron pochta manzili: antikorrupsiya@uztn.uz, telegramdagi rasmiy sahifasi: <https://t.me/Uztransnazorat>, telegram bot: [@anticorruption_uztn_bot](https://t.me/anticorruption_uztn_bot) hamda murojaat qilish uchun telefon raqam: **71-202-05-01 (515)** ishga tushirilgan.

Agar Siz korupsiyaviy holatlarga duch kelsangiz ushbu aloqa vositalari orqali bizga murojaat qilishingiz so'raladi.

Barcha axborotlar va ularning mualliflari haqidagi ma'lumotlar sir saqlanishi kafolatlanadi.

Hurmat bilan,

**Transport nazorati inspeksiyasi
boshlig'i J.A. Karimov.**